

ONKOLOGIK KASALLIKLAR HAQIDA TUSHUNCHA

Djurayeva Sohiba Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Xotamova Lobar Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich talabasi

KALIT SO'ZLAR: onkologiya, saraton, gemablastoz, o'sma, Gippokrat, ibn Sino, eksperimental, klinik, nazariy, radiatsion, kimyoviy.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada onkologiya, onkologik kasalliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Onkologik kasalliklarning kelib chiqish sabablari, uning oldini olish yo'llari tahlili keltirilgan. Va shu bilan birga onkologiya faniga hissa qo'shgan olimlar haqida ham to'xtab o'tilgan.

Onkologiya (yun.onkos - shish, o'sma va logost - ta'limot) tibbiy-biologik fan bo'lib, odam, hayvon va o'simliklarda onkogenezni nazariy, eksperimental va klinik jihatdan o'rganadi va o'simtalarni aniqlash, davolash hamda oldini olish usullarini ishlab chiqadi. Onkologiyaning rivojlanishida, ayniqsa, Gippokrat, ibn Sino, nemis olimi R. Virxov, rus olimlari M.A. Novinskiy, N.N. Petrov va boshqalarning xizmatlari katta. L.A. Zilber o'smalarning virus - genetik nazariyasini ishlab chiqdi. Klinik onkologiyaning jadal rivojlanishi xirurgiya, radiologiya, kimyoterapiya, immunologiyaning muvaffaqiyatlari bilan bog'liq.

Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" kitobida o'zining shaxsiy eksperimental va klinik tajribalari bilan birga o'smalarning kelib chiqishi, belgilari, ularni taniy olish va davolash usullarini ham bayon qilgan.

O'zbekistonda onkologiya fanining rivojlanishi P.F.Borovski, L.D.Vasilenko va boshqa olimlar nomlari bilan bog'liq. O'zbekiston onkologlari tomonidan o'smalar bilan birga uchraydigan kasalliklar quyosh nurining o'sma to'qimalaridagi almashinuviga ta'siri, o'sma kasalliklari epidemiologiyasi va onkologik yordamni tashkil etish, o'smalarni rentgenologik, ultratovush va radioizotop usullar orqali aniqlash yo'llari takomillashtirildi.

Dunyoda har yili 16 mln.ga yaqin birlamchi saraton holati aniqlanadi. Jumladan, O'zbekistonda 100 mingdan ziyod bemor onkologik kasalliklar bo'yicha ro'yxatda turadi. Shuni afsus bilan ta'kidlash joizki, 50% idan ortiq holatlarda ushbu kasalliklar kechki, ya'ni uchinchi va to'rtinchi bosqichlarda aniqlanmoqda, bunda esa ularni to'laqonli davolash mushkul bo'ladi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, kuniga birgina pomidor yeyish onkologik kasalliklarga sabab bo'luvchi saraton hujayralarining paydo bo'lish xavfini anchaga kamaytiradi.

Bugungi kunda bolalar o'rtasida ham onkologik kasalliklar ko'p uchramoqda. Ular ichida gemablastozlar qariyb 40% ini tashkil etadi. Shuningdek, markaziy asab tizimi o'smalari, neyroblastomalar, buyrak, suyak, yumshoq to'qimalar, quloq, tomoq, burun, jigar va jinsiy a'zolar xavfli o'smalari uchrab turadi. Insonlarda buning oldini qanday olish mumkin? degan savol tug'ilishi tabiiy. Bolalarda onkologik kasalliklar yuzaga kelishida embrional omillar asosiy o'rin tutadi. Bolalarda xavfli o'sma kasalliklarining oldini olish uchun, avvalo, ota-ona sog'lom bo'lishi, oilada sog'lom muhit yaratilishi, inson zararli illatlardan xoli bo'lishi, shuningdek, ekologik muhit musaffoligi juda muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, kasallikni davolagandan ko'ra, uning oldini olish oson. Xasta bo'lmasdan turib har bir inson onkolog - shifokorga profilaktika uchun hech bo'lmaganda 1-2 yilda bir marta uchrasa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda inson salomatligi bilan bog'liq ko'pgina nohush holatlarning oldi olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. D. O'razbayeva "Onkologiya sohasida psixologik xizmat" uslubiy qo'llanma.
2. Y.M.Fayziyev, E.H.Eshboyev "Umumiy va tibbiy psixologiya".
3. X.Q.Shodmonov, X.Sh.Eshmurodov, O.T.Tursunova "Asab va ruhiy kasalliklar".
4. <https://uza.uz> internet sayti.
5. <https://uz.wikipedia.org> internet sayti.